XALQ DEPUTATLARI URGANCH TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 14-may VI-88-46-12-173-K/24 Urganch tumani

Urganch tuman mahalliy byudjetining 2024-yil 1-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish hamda 2024-yil 1-chorak yer uchastkalarini elektron auksionda sotishdan tushgan tushumlar hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

Urganch tuman mahalliy byudjetining 2024-yil 1-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish hamda 2024-yil 1-chorak yer uchastkalarini elektron auksionda sotishdan tushgan tushumlar hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi tuman hokimligining takliflarini atroflicha muhokama qilib, Xalq deputatlari Urganch tuman Kengashi

QAROR QILADI:

Urganch tuman hokimligining tuman mahalliy byudjetining 2024-yil 1-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan hamda 2024-yil 1-chorak yer uchastkalarini elektron auksionda sotishdan tushgan tushumlar hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi taklifi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”ning 126-moddasiga asosan mahalliy byudjetning 2024-yil 1-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan hamda 2024-yil 1-chorak yer uchastkalarini elektron auksionda sotishdan tushgan tushumlar hisobidan:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.06.2022-yildagi “Yoshlar muammolarini o‘rganish va xal etish tizimini yanada takomillashtirish chora tadirlari to‘g‘risida”gi 312-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobiga **64 mln. (oltmish to‘rt million) so‘m** va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2022-yildagi “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va xal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 145-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida jamg‘arma hisobiga **64 mln. (oltmish to‘rt million) so‘m** mablag‘lar tuman hokimligiga ajratilsin.

Tuman mahalliy byudjetining 2024-yil 1-chorak yer uchastkalarini elektron auksionda sotishdan tushgan tushumlar hisobidan jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish uchun **191 mln. (bir yuz to‘qson bir million) so‘m** mablag‘larni yo‘naltirish tuman hokimligi qoshida ochiladigan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” shaxsiy g‘azna hisob varag‘iga o‘tkazib jamlansin va ushbu mablag‘lar boshqa maqsadlar uchun sarflanishi qat'iyan taqiqlansin.

Urganch tuman hokimligining 2024-yil 23-yanvardagi 3-8-sonli xatini ijrosini ta'minlash maqsadida tuman markazida post-patrul xizmati takomillashtirilganligini inobatga olib, post-

patrul xizmati xarajatlariga 2024-yilning yanvar, fevral, mart va aprel oylari uchun **128 mln.212 ming 400 (bir yuz yugirma sakkiz million ikki yuz o‘n ikki ming to‘rt yuz) so‘m** mablag‘ tuman hokimligiga ajratilsin.

Urganch tuman hokimligining 2024-yil 23-yanvardagi 3-7-sonli xati ijrosini ta'minlash maqsadida tuman hokimligida qo‘riqlash xizmati takomillashtirilganligini inobatga olib, qo‘riqlash xizmati xarajatlariga 2024-yilning yanvar, fevral, mart va aprel oylari uchun **71 mln. 046 ming 400 (etmish bir million qirq olti ming to‘rt yuz) so‘m** mablag‘ tuman hokimligiga ajratilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-13-mart kunlari Xorazm viloyatiga tashriflari davomida kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan 17-sonli majlis bayonining 16-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida xodimlarning ish samaradorligi va mas'uliyatini oshirish hamda ularning mehnatini moddiy jixatdan qo‘llab-quvvatlash uchun tuman hokimligi xodimlariga ustama oylik to‘lovlari uchun **175 mln 742 ming 438 (bir yuz yetmish million yetti yuz qirq ikki ming to‘rt yuz o‘ttiz sakkiz) so‘m**,xodimlarga oylik oziq-ovqat to‘lovlari uchun **76 mln 500 ming (yetmish olti million besh yuz ming) so‘m**, Xalq deputatlari Urganch tuman Kengash kotibiyati bo‘limi xodimlariga ustama oylik to‘lovlari uchun **24 mln 853 ming 500 (yigirma to‘rt million sakkiz yuz ellik uch ming besh yuz) so‘m**, xodimlarga oylik oziq-ovqat to‘lovlari uchun **7 mln 650 ming (yetti million olti yuz ellik ming) so‘m**, Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limiga xodimlarga oylik ustama to‘lovlari uchun **94 mln 279 ming 973 (to‘qson to‘rt million ikki yuz etmish to‘qqiz ming to‘qqiz yuz etmish uch) so‘m** mablag‘lar ajratilsin.

Urganch tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli 3 ta kontenerlarni ta'mirlashda qurilish mollari, jixozlash hamda me'bel ofis jixozlari sotib olish xarajatlari uchun **60 mln. (oltmish million) so‘m** mablag‘ tuman tibbiyot birlashmasiga ajratilsin.

Urganch tuman Hokimining 15.03.2024-yil №23-12-173-F/24xdfu-sonli Farmoyoishi ijrosini ta'minlash maqsadida tuman hokimligining tashkiliy-kadrlar guruhi rahbariga har oylik maoshiga 200 foiz hamda tashkiliy-kadrlar guruhi bosh mutaxassisining har oylik maoshiga 100 foiz ustamalar 2024-yilning 1-fevralidan **27 mln. 249 ming 390 (yigirma etti million ikki yuz qirq to'qqiz ming uch yuz to'qson) so‘m** mablag‘ tuman hokimligiga ajratilsin.

Xorazm viloyati IIB JXX YHXBning Urganch tumani hududida hizmat qilayotgan 4 nafar xodimlarining oylik maoshlari uchun **129 mln. 805 ming 200 (bir yuz yigirma to‘qqiz million sakkiz yuz besh ming ikki yuz) so‘m** mablag‘ tuman hokimliga ajratilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi “Xorazm viloyatida aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish va mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 72/32-sonli maxsus qarorining 2-ilovasiga muvofiq Urganch tumanida obodonlashtirish ishlari olib borilayotgan mahallalardagi tuproq yo‘llariga qum shag‘al aralashmasini yotqizish ishlaridan bo‘lgan qarzdorlikni qoplash uchun **49 mln 400 ming (qirq to‘qqiz million to‘rt yuz ming)** mablag‘ tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga ajratilsin.

Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga archa va gul ko‘chatlar sotib olish bilan bog'liq xarajatlari uchun **232 mln (ikki yuz o‘ttiz ikki million) so‘m** mablag‘ ajratilsin.

Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga Urganch-Xiva yo‘l bo‘ylariga gul ko‘chatlar o‘rnatiladigan ustunlar sotib olish xarajatlari uchun **80 mln (sakson million) so‘m** mablag‘ ajratilsin.

Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga "Jayxun" mahallasining yo‘l bo‘ylariga Gazon sotib olish va "Meroblar" mahallasining yo‘l bo‘ylariga archa ko‘chatlari sotib olish xarajatlari uchun **85 mln (sakson besh million) so‘m** mablag‘ ajratilsin.

Urganch tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo‘limiga qarashli36-son umumta'lim maktabiga qurilish materiallari sotib olish bilan bog‘liq xarajatlari uchun **180 mln (bir yuz sakson million) so‘m** mablag‘ ajratilsin.

Urganch tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo‘limiga qarashli 48-son umumta'lim maktabiga qurilish materiallari sotib olish bilan bog‘liq xarajatlari uchun **320 mln (uch yuz yigirma million) so‘m** mablag‘ ajratilsin.

Tuman hokimligining 2023-yil 8-sentyabrdagi 2-sonli uy-joyni ijaraga berish shartnomasiga asosan Urganch tumanida tug‘ilgan Xakimova Manzura Egamberganovnaga tegishli bo‘lgan yashash joyini ijaraga oluvchi, ya’ni Rossiyaning Moskva shahridan kelgan o‘qituvchi Marina Yurevana Fedulovani 6 oylik ijara puli uchun 9 mln. (to'qqiz million) so‘m hamda Tuman hokimligining 2023-yil 1-noyabrdagi 6-sonli uy-joyni ijaraga berish shartnomasiga asosan Urganch shahrida tug‘ilgan Masharipov Temur Yusupovichga tegishli bo‘lgan yashash joyini ijaraga oluvchi, ya’ni Hindiston davlatidan kelgan o‘qituvchi Mammedeessa Kurambrani 2 oylik ijara puli harajatlarini qoplab berish uchun 6 mln. (olti million) so‘m jami **15 mln (o‘n besh million) so‘m** mablag‘ tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo‘limiga ajratilsin.

Urganch tuman hokimligiga ijro xujjatlari (12-ta tashkilot va davlat foydasiga) bilan bog‘liq xarajatlar uchun **255 mln (ikki yuz ellik besh million) so‘m** mablag‘ ajratilsin.

Xorazm viloyati hokimining 2024-yil 13-martdagi "Xorazm viloyati tuman (shahar)lar sektor rahbarlari hamda hokim o‘rinbosarlari faoliyatinining 2023-yil yakunlari bo‘yicha baxolash natijalari to‘g‘risida"gi 134-son yig‘ilishi bayoni hamda tuman hokimining 2024-yil 25-martdagi 47-12-173-F/24-sonli famoyishi ijrosini ta'minlash maqsadida tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari "Yaxshi" natijalarni qayd etganligi munosabati bilan ish haqining 50 foiz miqdorida 6 oy rag‘batlantirish xarajatlari uchun **18 mln 453 ming 608 (o‘n sakkiz million to‘rt yuz ellik uch ming olti yuz sakkiz) so‘m** mablag‘ tuman hokimligiga ajratilsin.

Urganch tumanidagi "Oyoq-bog‘" mahallasida "Obod ko‘cha" mezonini joriy etishda Piyodalar yo‘lagini (trotuar) joriy ta'mirlash xarajatlari uchun **46 mln. (qirq olti million)** so‘m mablag‘ tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga ajratilsin.

O‘zbekiston mahallalari uyushmasi raisi, Respublika mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashi raisi o‘rinbasarining 2024-yil 2-fevraldagi Respublika mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashi majlisining "Eng namunali mahalla raisi" tanlovini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 1-sonli majlis Bayoniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21 dekabrdagi PQ-402-son Qarori bilan tasdiqlangan "Yo‘l xaritasi"ning 22-6andida "Eng namunali mahalla raisi" tanlovini o‘tkazish va uning natijalariga ko‘ra har yili 22-mart - Mahalla tizimi xodimlari kuni munosabati "Boqaylar" MFY raisi Xudayberganova Darmonjonga "Eng namunali mahalla raisi" faxriy yorlig‘i va **5 mln (besh million) so‘m** miqdorida rag‘batlantirish xarajatlari uchun tuman hokimligiga mablag‘ ajratilsin.

Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga Urganch-Xiva yo‘liga ekilgan daraxt va gullarni sug‘orish uchun plastik trubalar sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun **48 mln (qirq sakkiz million) so‘m** mablag‘ ajratilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida 2021-yil 1-aprel kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 17-sonli bayonining 15-bandi ijrosini ta'minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-apreldagi "Tibbiy sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzliksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4666-sonli va 2021-yil 22-iyundagi "2021/2022 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida"gi PQ-5157--sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida klinik ordinatura (rezisdentura)da maqsadli o‘rin-Hokimlik to‘lov kontrakti asosida o‘qib tugatayotgan 4 nafar bitiruvchi talabalarning to‘lovlari xarajatlari uchun **41 mln 540 ming (qirq bir million besh yuz qirq ming) so‘m** mablag‘ tuman hokimligiga ajratilsin.

Urganch tuman hokimligi xodimlarining xizmat safari xarajatlari uchun **50 mln (ellik million) so‘m** mablag‘ ajratilsin..

Urganch tumani mudofaa ishlari bo'limining 26.02.2024-yil №6/1/134-sonli xatiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatini o'tab bo'lgan muddatli harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatish to'g'risida"gi PQ-68-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Yazirlar Mahkamasining 2009-yil 14-yanvardagi 10-sonli Qarorining 9-bandi hamda Xorazm viloyati xokimining 2024-yi1 17-fevraldagi №77-12-0-Q/24-sonli qarori ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash maqsadida fuqarolarni muddatli harbiy xizmatga kuzatishda "Qurolli Kuchlar sumkasi" estalik sovg'alari berilishini ta'minlash xarajatlari uchun **28 mln. 800 ming (yigirma sakkiz million sakkiz yuz ming) so‘m** mablag‘ tuman hokimligiga ajratilsin.

Urganch tuman Davlat soliq inspeksiyasiga pochta xarajatlari hamda konvert marka sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun **10 mln. (o‘n million) so‘m** mablag‘ ajratilsin.

Urganch tumani obodonlashtirish boshqarmasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida Urganch-Xiva yo‘liga monitor o‘rnatish xarajatlari uchun **200 mln (ikki yuz million) so‘m** mablag‘ ajratilsin.

Urganch tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo‘limiga qarashli 48-son umumta'lim maktabiga "PREZIDENT BURCHAGI" dekorativ konstruksiyasini o‘rnatish bilan bog‘liq xarajatlari uchun **45 mln (qirq besh million) so‘m** mablag‘ ajratilsin.

Urganch tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.v.b R.Sabirov tuman mahalliy byudjetiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

Urganch tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limi boshlig‘i Q.Usmanov ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda o‘tkazilishini ta'minlasin.

Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi SULTANOV GAYRATJON PO‘LATOVICH